

TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION TA'LIM MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Axmadjonova Xusnida Xotamqul qizi

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada texnologiya fani o'qituvchilarida innovatsion ta'lim muhitini takomillashtirish maqsadida texnologiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari, o'qituvchiga dars berishda yordam beruvchi asosiy qurollar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, texnologiya, aqliy hujum, tanqidiy tafakkur, debatlar, nuqtai nazaring bo'lsin, har kim har kimga o'rgatadi, rolli o'yinlar, hikoya qilish, tushuntirish, suhbat, demonstratsiya, illyustratsiya, Illyustrativ-tasvirlash, laboratoriya ishi, masala ishlash.

Innovatsiya - lotincha so'z bo'lib, "yangilik kiritaman, tatbiq etaman, o'zgartiraman" degan ma'nolarni bildirib, u quyidagi usullardan iborat: modellashtirish (trenirovka), namoyish qilish, lichik guruhlarda bo'lish, aqliy hujum, tanqidiy tafakkur, debatlar, nuqtai nazaring bo'lsin, har kim har kimga o'rgatadi, rolli o'yinlar, muayyan holatni (vaziyatni) o'rganish, modifikatsiyalangan ma'ro'za, o'yinlar, bingo, axborot texnologiyalari (kompyuter) yordamida.

Texnologiya darslarida an'anaviy dars o'tish metodlari quyidagilardan iborat:

- 1) o'quv mavzusini og'zaki bayon qilish;
- 2) suhbat;
- 3) darslik va kitob bilan mustaqil ishlash;
- 4) demonstratsiya, illyustratsiya (tasvirlash, rasmlar bilan kursatish) va ekskursiya;
- 5) og'zaki, yozma mashq hamda grafik ishlar, maktab ma'ruzasi;
- 6) amaliy mashg'ulotlar (laboratoriya ishi, masala ishlash).

O'quv materiallarini og'zaki bayon qilish metodi bayon qilinayotgan bilimlarni tug'ridan-tug'ri o'qituvchining jonli nutqi orqali bayon qilinishi bilan tavsiflanadi.

Bu metod: a) hikoya qilish; b) tushuntirish; v) maktab ma'ruzasidan iborat bo'lishi mumkin.

Hikoya qilish - o'qituvchi tomonidan yangi o'tilayotgan mavzuga oid faktlar, fizik hodisa va voqealarning mazmunini ifodalaydigan tushuncha, qonun va qoidalarning bayon qilinishidir.

Ma'ruza metodi - kasb-hunar kollejlarda o'qitiladi. Odatda ma'ruzaning mavzusi mazmuniga ko'ra, bir - ikki mavzuning asosiy g'oyaviy yo'nalishini ifodalovchi, tugallangan (yaxlit) tushunchalar tavsifidir.

Og'zaki bayon qilish metodidan samarali foydalanmoq uchun yuqorida ko'rsatib o'tilganlardan tashqari quyidagi bir qancha didaktik qoida va tajribalarga amal qilinishi lozim:

- bayon qilinayotgan mavzular maktab ta'limi oldida turgan umumiy talablarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Binobarin, mavzular g'oyaviy jihatdan puxta, nazariya bilan amaliyotni bog'lashni nazarda tutishi kerak;

- mavzuda o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullari hisobga olinishi kerak;

- o'quvchilarni dars jarayonida mavzuga oid fan yangiliklari, yangi kashfiyotlar bilan tanishtirish, ular yuzasidan mustaqil ishlashlari uchun vazifalar berib borilishi lozim.

- og'zaki bayon qilish metodida o'qituvchining nutqi birdan-bir bilim manbai hisoblanadi. U ravon, tushunarli va emotsional (ta'sirchan) bo'lishi lozim.

- dars davomida ishlatilgan tushuncha va yangi so'zlarga (terminlarga) izoh berish, qoida va qonunlar ta'rifini sodda, ixcham va tushunarli qilib aytilishiga erishish kerak;

- bayon qilish jarayonida ishlatilgan ta'riflar, qoida va qonunlar o'qituvchi tomonidan yozdirilishi kerak.

Suhbat metodi tajribada - eng kup qo'llaniladigan va samarali metodlardan biridir. Bu kupincha savol-javob metodi deb ham yuritiladi. Chunki mazkur metod dars jarayonida savol-javob vositasida olib boriladi. O'qituvchi o'quvchilarga savol berib yoki ilgari o'zlashtirgan bilimlarini eslariga tushirish, yoxud mavjud bilimlar asosida yangi mavzulardan tegishli xulosa va natijalar chiqarish, umumlashtirish, shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlariga tayanib, yangi xulosalar chiqarishni taklif etish yuli bilan bilim, ko'nikma va malakalar berishi nazarda tutiladi.

Suhbat quyidagi maqsadlarda olib borilishi mumkin:

o'tilgan mavzuning mazmuniga bog'liq holda o'quvchilarning hayotda ko'zatgan va tajribada ishlatgan fakt (dalil), narsa va hodisalardan nimalarni bilganliklarini aniqlash;

o'tilgan mavzu va, hatto ilgari o'tilgan materiallarni (ma'lumotlarni) qayta esga tushirish;

o'quvchilarning bayon qilinayotgan ma'lumotni qanchalik idrok qilayotganliklarini aniqlash;

o'tilayotgan mavzuga oid ma'lumotlar haqida suhbat olib borish;

bayon qilinayotgan ma'lumotni takrorlash va mustahkamlash;

o'tilayotgan mavzu yuzasidan xulosa chiqarish, umumlashtirish, qoida va ta'riflar ustida ishlash;

- o'zlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalarni hisobga olish;
- uyga berilgan topshiriq va mustaqil o'rganilgan ma'lumotlar haqida suhbat utkazish.

Suhbat metodi o'qituvchi faoliyatining yangi-yangi qirralarini ochib beradi va bir maqsadga qaratilgan mustahkam harakat birligini tug'diradi.

Darslik bilan ishlash metodi. Ta'lim tizimida darslik bilan ishlash metodi asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Binobarin, darslikdan foydalanmay biror fan, texnika yoki san'at sohasini egallab bulmaydi. Darslik bilan ishlash ta'lim jarayonida o'qish-o'qitish ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun yordam bersa, ikkinchi tomondan, o'quvchilarning kelajakdagi faoliyati uchun zarur bo'lgan ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarni mustaqil o'qib-o'rganish madaniyatini tarkib topdirish bilan birga u bolalarni ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishda katta ahamiyatga ega.

O'quv adabiyoti bilan ishlash murakkab psixik jarayonni o'z ichiga oladi. O'qish jarayoni o'qituvchi tomonidan bayon qilinayotgan bilimlarni o'quvchilarning eshitib, o'qishlarinigina emas, balki o'quv materiallarini (ma'lumotlarni) kitob matnidan ko'rib, ongli idrok qilish faoliyatini ham taraqqiy ettirishni nazarda tutadi.

Darslik bilan ishlash metodi ikki shaklda olib boriladi:

- dars jarayonida darslik va o'quv adabiyoti bilan ishlash;
- darslik va o'quv adabiyotlari bilan sinfdan va maktabdan tashqari mustaqil ishlash.

Kitob bilan ishlashning har ikkala shakli o'quv fanlari buyicha deyarli hamma sinflarda qo'llanishi mumkin. O'quvchilarni darslik va boshqa o'quv ma'lumotlari bilan birga qo'shimcha adabiyot, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar, shuningdek gazeta, jurnallardan foydalanishga ham o'rgatish kerak.

Demonstratsiya va illyustratsiya o'quv ma'lumotlarini aniq usullar orqali bevosita idrok qilish jihatidan muhim ahamiyatga ega. O'rganilayotgan buyum va hodisalarni to'liq va aniq tasavvur etgan taqdirdagina o'quvchilarning olgan bilimlari chuqur va puxta buladi.

O'quvchilar kunlik hodisa va voqealarni demonstratsiya metodi orqali bevosita ko'rib, idrok qilishlari natijasida ular haqida mustaqil fikr yuritish, tahlil qilish, tegishli xulosalar chiqarishga muvaffaq bo'la oladilar. Bu metod dars davomida yoki darsning ayrim qismlarida qo'llaniladi.

Ilyustrativ-tasvirlash. Rasmlar ko'rsatish. Maktabda qo'llaniladigan ko'rsatma ma'lumotlar ikki turda bo'lishi mumkin.

1. Tabiiy kursatma materiallar: o'simliklar, hayvonlar, foydali qazilmalar, ularning tuplamlari, fizik asbob va boshqalar.

2. Tasviriy ko'rsatma materiallar. Bu materiallar mazmuni, tuzilishi va shakliga qarab ikki turga bo'linadi:

a) buyum, fizik asbob, narsa, hodisa va voqealarning tasvirini ifodalovchi materiallar (rasm, surat, fotosurat, diafilm, kinofilm, videofilm va hokazolar);

b) fizik asbob, narsa va voqealarning biror shartli, belgilari orqali tasvirlash yoki qisqartirilgan tasviriy ma'lumotlar-chizmalar, jadvallar, diagrammalar va shular singari.

Texnologiya fanidan sayohat o'tkazishda bir qancha talablarga amal qilinishi lozim. Mazmuniga ko'ra sayohat t o'rt yo'nalishda bo'lmog'i lozim:

- tabiatni kuzatish va o'rganish maqsadida olib boriladigan;
- sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga oid;
- ijtimoiy va maishiy mazmundagi materiallar bilan tanishishga oid;
- san'at va adabiyot ma'lumotlari bilan tanishishni nazarda tutuvchi;

O'qituvchi sayohat oxirida o'quvchilar bilan o'zlashtirilgan materiallarga asoslangan holda kuzatish yuzasidan o'quvchilar bilan suhbat o'tkazadi. O'quvchilar sayohat yuzasidan hisobot yozadilar.

Texnologiya darslarida noan'anaviy ta'lim metodlari: lonferensiya darsi, seminar darsi, texnika vositalari yordamida dars o'tish, ilmiy-fantastik kitoblar ustida ishlash, o'ylab top (evrika), o'yinchoqlar yordamida dars o'tish, darsda kasbga yo'naltirish, eksperimental dars o'tish va boshqalar.

Texnik vositalar yordamida dars o'tish. O'qituvchiga dars berishda yordam beruvchi asosiy qurol darslik, unga yozilgan metodik qo'llanma, savol va masalalar hamda mashqlar to'plami, didaktik materiallar va hokazolar. Shular qatoridan yaxshi o'rin olgan texnik vositalardir. Ya'ni kino apparatlari, video, kodoskop va boshqalar. Ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitishga yordam beradigan bunday asboblarda o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.M.Ahmedov, Z. Teshaboev, G.Xojikarimova. /Ta'lim tizimida islohatlar.// Международный научный журнал "Graal nauki" № 4 (Traven'ь, 9 apre'l 2021) Venetsiya, Italiya S.475-477

2. M.M.Axmedov, I.I.Karimov, S.M.Puzimatova //ДАРС ЖАРАЁНИДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ МУНОСАБАТЛАРИНИ АМАЛАГА ОШИРИШ ОМИЛЛАРИ// О'ЗБЕКISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 12-SON. 19.10.2022. 56-60

3. M.M.Axmedov, Bo'tayeva Gulmira Boxodirjonovna //TEXNOLOGIYA FANIDA TEXNOLOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH//



O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR
JURNALI. 12-SON. 19.10.2022. 745-750

4. Axmedov M.M., Xojikarimova G.T., Safarova G.M. //Fundamentals Of
Development Of Creative Abilities Of Students In Professional Trainin//The
american journal of applied sciences SJIF-5.634 DOI-10.37547/tajas.Vol. 3 Issue 01,
2021.

5. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, A.Ruzimatova //CREDIT-MODULE
SYSTEM OF EDUCATION// O'ZBEKISTONDA FANLARARO
INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 10-SON. 20.08.2022.
83-87 betlar.

6. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Ro„zimatova Arofatxon Maxmudjon qizi
//TA'LIM OLUVCHILARNI FANLARNI O„ZLASHTIRISHGA QIZIQTIRISH
USULLARI// IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 5 OKTYABR / 2022 YIL / 22 -
SON. 226-230 betlar

7. Axmedov M.M., Xojikarimova G.T., Safarova G.M. //The Concept Of
"Creative", Its Importance In Education// International Journal of Academic
Pedagogical Research (IJAPR) s. 116-117.

8. Tursunboy Axmedov, Siddikova Ranoxon Abdulxay qizi, Xusanova
Lobarxon Murodovna //Basics of Wood Materials and Woodworking
Technology// Texas Journal of Engineering and Technology.
<https://zienjournals.com>. VOL. 9, JUNE, 2022. 100-102 page.

9. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Melikuzieva Zulhumor Sherqozi qizi,
Abdullaeva Umidahon Uktamjon qizi //INNOVATIVE EDUCATIONAL
TECHNOLOGIES, THEIR NATURE, TYPES AND THEORETICAL
FUNDAMENTALS// Texas Journal of Multidisciplinary Studies. Vol. 9. 06-2022.
123-126 page.

10. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Oripova Nodirahon Qodirjon qizi,
Nazirova Arofatxon Maxmudjon qizi //Basics of a healthy lifestyle in the
educational process// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-
2022. 89-94 page.

11. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Odinaxon Odilovna Djalalidinova //
Tibbiy ta'limda interfaol usullardan foydalanish// Международный научный
журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» № 3 (100), часть 1.
сентябрь, 2022 г 565-569.

12. Eleonora Topvoldievna Mirzajonova, Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva //
Modern Special Preschool Education: Problems and Solutions// Journal of
Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 100-106 page.



13. Парпиева, ОР; Хожикаримова, ГТ; Назирова, АМ //FORMATION OF STUDENT PEDAGOGICAL SKILLS BASED ON THE REQUIREMENTS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT// Международном научно-практическом журнале “Экономика и социум”. Вып №6 (85) 2021. 157-161 стр

14. Xalimaxon G'anieva, Tojimatov Jamshidbek //CHARACTER ACTENTATION IN ADOLESCENTS// International Journal for Innovative Engineering and Management Research Volume 10, Issue 04, Pages: 153-157.

15. H.Ganieva //SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF SELF-CONSCIOUSNESS OF STUDENTS// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Vol. 2 No. 4 (2021) 190-193 page

16. Ганиева Халимахон Ахматхоновна //IThe Study Of Socio-Psychological Problem Of Loneliness// Turkish Journal of Computer and Mathematics education Vol.12 No.12 (2021), 2580-2590

17. Sh.M.Tairov “Hayot faoliyati xavfsizligi sohasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning nazariy jihatlari”. “ IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI” 5 IYUN / 2022 YIL / 19 – SON.

18. Tairov Sherzod Mirzadjanivich //Moslashuv (adaptatsiya) davridagi organizm funksiyalarining dinamikasi va uning bosqichlari// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» № 3 (100), часть 1. сентябрь, 2022 г. 475-478 стр.

19. Abdukadirova L. Y., Mirzajonova E. T. The importance of reading competencies in the context of the “industry 4.0” industrial revolution //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 205-210.

20. Abdukadirova L. Y. Basic scientific and theoretical approaches on learning coping behavior of students who are in difficult life situations //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. S1. – С. 543-550.

21. Абдукадилова Л. Ю. АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ СЕМЕЙНЫХ СТУДЕНТОК В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2021. – Т. 4. – №. 6.

22. Laura A. THE MAIN APPROACHES TO THE STUDY OF THE DIFFICULT LIFE SITUATION IN SOCIO-PSYCHOLOGICAL RESEARCH //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 12.

23. G'aniyeva Xalimaxon Ахматxonovna //PSYCHOLOGICAL FUNDAMENTALS OF THE SOCIAL ENVIRONMENT IN PERSONAL DEVELOPMENT// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Volume1 Issue02, May 2021. 717-724 page



24. Ganieva Khalimakhon Akhmatkhonovna //PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF GENIOLOGY ASSIGNMENT IN YOUNG PEOPLE// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) Vol. 9, Issue 12, Dec.(2021) 335-337 page

25. Ganieva Khalimakhon Akhmatkhonovna, Tojimamatov Jamshid //PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SUICIDAL BEHAVIOR OF MINORS// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) Vol. 9, Issue 12, Dec.(2021) 1053-1058 page